

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda 2024 yil uchun korrupsiyaga qarshi  
kurashish tizimining amal qilishi haqida**

**UMUMIY HISOBOT**

**I. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot**

- “Biznesni rivojlantirish banki” ATB markaziy idorasi, Toshkent shahar hududiy hamda Yakkasaroy tuman BXOlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha ISO 37001:2016 halqaro sertifikatini qo‘lga kiritildi;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha ISO 37001:2016 halqaro sertifikatini talabi bo‘yicha bankni tashqi auditdan o‘tkazish yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

- 2024-yil mobaynida Bosh bank hamda barcha hududiy tarkibiy bo‘linmalarda o‘quv- seminarlar tashkil etilib barcha tarkibiy bo‘linmalar xodimlari **korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish mavzularida** o‘qitildi.

- ISO 37001:2016 Xalqaro standard asosida maxsus o‘qitishlarni tashkil etish maqsadida trening tashkiloti tomonidan 2024-yilning 2-4 aprel kunlari bankning 23 nafar top menejerlari o‘qitildi va ularga CERT-akademiya tomonidan ISO 37001:2016 Xalqaro sertifikatlari topshirildi.

- Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tajriba almashish, xodimlarning bilimlarini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar o‘tkazildi:

- 2024 yil 4 dekabr kuni “Bank faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar” mavzusida “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o‘tkazilgan ochiq eshiklar kuni”;

- 2024 yil 20-21 dekabr kunlari Komplaens nazorati departamentining 85 nafar xodimlari ishtirokida “Biznesni rivojlantirish banki” O‘quv markazida o‘quv seminarlari tashkil etildi.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi,

- 20 ta ichki me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan:

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati

2. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi faoliyati to'g'risidagi Nizom
3. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tizimi xodimlarining odob-axloq Qoidalari
4. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti
5. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom
6. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma
7. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda biznes hamkorlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazishga oid Yo'riqnoma
8. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimining ichki auditini o'tkazish Tartibi
9. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish to'g'risidagi Tartibi
10. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Tartibi
11. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning vazirlik va idoralar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'zaro hamkorlik qilish Tartibi
12. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning korrupsiyaga qarshi menedjment tizimi bo'yicha Qo'llanma
13. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi
14. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi
15. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning korrupsiyaga qarshi menedjment tizimini nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish bo'yicha Tartibi
16. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma
17. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda kontragentlarni tekshirish Tartibi

18. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish Tartibi

19. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Komplaens-nazorat departamenti to‘g‘risida”gi nizom

20. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish Tartibi

- 5 ta ichki me‘yoriy hujjatlarga qonunchilikdagi yangiliklardan kelib chiqib yangi tahrirda qabul qilindi:

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma

2. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning vazirlik va idoralar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘zaro hamkorlik qilish Tartibi;

3. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi;

4. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi;

5. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda kontragentlarni tekshirish Tartibi.

- 2 ta ichki me‘yoriy hujjatlar ( 1 tasi yangitdan ishlab chiqildi, 1 tasi yangi tahrirda) ishlab chiqilib Ichki me‘yoriy hujjatlarni ko‘rib chiqish ekspert guruhiga taqdim etilgan.

1. “Biznesni rivojlantirish banki “ATBda Komplaens tavakkalchiligini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom;

2. “Biznesni rivojlantirish banki “ATBda Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Nizom.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash**

“Biznesni rivojlantirish banki “ATB markaziy idorasi va hududlardagi tarkibiy tuzilmalarida mavjud barcha vazifa va lavozimlarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajalari baholandi va korrupsion riski yuqori (128 ta) va o‘rta (411 ta) deb baholangan vazifa va lavozimlarning korrupsion risklarini minimallashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish**

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida faoliyat yuritayotgan 2838 ta xodimlar tomonidan Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalari to‘ldirilib, ular tahlil qilinganda jami 156 ta potensial manfaatlar to‘qnashuvi (markaziy idorada 31 ta hududiy tarkibiy tuzilmalarda 125ta) mavjudligi aniqlanib, mazkur aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvlar masalasi Obod-ahloq komissiyasida ko‘rib chiqilib, tizimda real manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida mazkur xodimlar bilan profilaktik chora-tadbirlar (suhbat) o‘tkazildi;

### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Tashkilot sharnomalariga kiritish**

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB ishtirokida tuziladigan barcha turdagi shartnomalarga (100 %) korrupsiyaga qarshi shartlar kiritildi hamda korrupsiyaga duch kelgan hollarda bankda tashkil qilingan korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berishga muljallangan 4 ta aloqa kanallariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanish imkonini beradigan QR-kodlar shartnomalarning pastki qismlariga ( har bir varoqda) joylashtirildi.

### **Kontragentlarni tekshirish**

Hisobot davrida bankda tashkil etilgan Kontragentlarni tekshirish bo‘yicha tashkil etilgan ishchi gurug‘ tomonidan 81 ta tekshiruvlar o‘tkazilib, shulardan 81 ta ijobiy va 0 ta salbiy xulosalar taqdim etildi.

### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga jami 209 ta yangi xodimlar ishga qabul qilingan bo‘lib, ushbu nomzodlarga Komplaens nazorat departamenti va uning hududlardagi mas‘ul xodimlari tomonidan o‘rganilib tegishli xulosalar taqdim etilgan

### **V. Ta’lim va kommunikatsiya**

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB markaziy idorasida Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha muntazam ravishda o‘quv seminarlari tashkil qilini “BRB akademiya”ning o‘quv platformasiga joylashtirish orqali tizimda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlari tanishishlari uchun sharoit yaratildi.

Banking Andijon, Namangan, Farg‘ona hududiy boshqarmalari, Andijon shahar, Xo‘jaobod, Qo‘rg‘ontepa, Namangan shahar, Pop, Uchqo‘rg‘on, Farg‘ona shahar, Marg‘ilon, Qo‘qon BXOlarida markaziy idora Komplaens nazorati departamenti xodimlari tomonidan joyiga chiqib, bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va O‘zbekiston Respublikasining manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonuni talablari yuzasidan o‘quv



seminarlari tashkil qilindi. Shuningdek, komplaens nazorati departamentining joylardagi mas'ul xodimlari tomonidan bankning barcha hududiy boshqarmalari, barcha bank xizmatlari ofislari va markazlarining xodimlari ishtirokida o'quv seminarlari tashkil qilindi.

Yuqoridagilardan tashqari 2024 yil davomida O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining mas'ul xodimlari ishtirokida manfaatlar to'g'risidagi qonuni bo'yicha o'quv seminarlari tashkil qilindi.

- 2024 yil 4 dekabr kuni "Bank faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusida "9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o'tkazilgan ochiq eshiklar kuni";

- 2024 yil 20-21 dekabr kunlari Komplaens nazorati departamentining 85 nafar xodimlari ishtirokida "Biznesni rivojlantirish banki" O'quv markazida o'quv seminarlari tashkil etildi.

#### **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar**

Hisobot davrida "Biznesni rivojlantirish banki" ATB xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali xabarlar kelib tushmagan;

#### **VII. Monitoring va nazorat**

2024-yil yakuniga:

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bank xodimlarining korrupsion xatti-xarakatlari haqida ma'lumot mavjud emas;

Bankda mavjud korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan 4 ta olaqa kanallari soz va ish faoliyatida;

Bankda aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar reyestri yuritilgan.

2024-yil uchun mo'ljallangan yillik nazorat tadbirlari rejasiga muvofiq yil davomida bankda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi tartib-taomillari bo'yicha monitoringlar o'tkazilgan.

#### **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

Hisobot davrida "Biznesni rivojlantirish banki" ATB xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar

bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali xabarlar kelib tushmaganligi sababli ta'sir choralar ko'rilmagan.

Lekin 1 ta holatda korrupsiyai haqida xabar berishga mo'ljallangan olaqa kanaliga raxbar va xodim o'rtasidagi ta'magirlik va ichki mehnat tartibi qoidalarini buzish holati to'g'risidagi kelib tushgan murojaat markaziy idora Odob-ahloq komissiyasida ko'rib, boshqarma boshlig'i bilan tazilgan mehnat shartnomasi xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilingan.

## **IX. Xulosalar**

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning ustuvor maqsadlaridan biri O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari, Prezident qarorlari va farmonlari va bankning ushbu sohada qabul qilingan ichki me'yori hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlarni davom ettirish hisoblanadi.

## **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

2025-yil mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo'yicha o'quv-treninglar hamda test sinovlarini davom ettirish;

Bank hududiy tarkibiy bo'linmalarini Xalqaro ISO 37001:2016 standart talablariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazish;

Bank xizmatlarini to'liq avtomatlashtirish orqali, bankda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion risklarni kamaytirishga erishish;

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni to'ldirilishini avtomatlashtirish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
maxsus boshqarmasi boshlig'i**

 **A. Tashkulov**